www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

SHAROF BOSHBEKOV ASARLARI TILINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Mustafayeva Nodira Abdujalilovna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
O‘zbek va chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Tel:(99) 488-41-49

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharof Boshbekov asarlari tilining lingvistik va pragmatik xususiyatlari, til birliklari vositasida o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: pragmatika, sosio- pragmatika, lingvistika, til, til vositalari, ta’sir ko‘rsatish, lingvistik tadqiqot
Abstract: This article analyzes the linguistic and pragmatic features of the language of Sharof Boshbekov's works, the mechanisms of influencing the reader through language units.
Key words: pragmatics, socio-pragmatics, linguistics, language, language tools, influence, linguistic research.
Аннотация: В данной статье анализируется лингвистическая и прагматические особенности языка произведений Шарофа Бошбекова, механизмы воздействия на читателя через языковые единицы.
Ключевые слова: прагматика, социопрагматика, лингвистика, язык, языковые средства, влияние, лингвистические исследования.

Lingvistik tadqiqotlar tobora rivojlanib, til hodisalarini tadqiq etishning yangi sohalari paydo bo‘la boshladi. Kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika kabi sohalar bugungi kunda dunyo va o‘zbek tilshunosligida jadal sur’atlarda taraqqiy etmoqda. Shu o‘rinda pragmatika va sosiopragmatikaga doir izlanishlarning ham dunyo miqyosida faol amalga oshirilayotgan bir paytda o‘zbek tilshunosligida mazkur yo‘nalishlarga nisbatan kam e’tibor berilayotganligini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Pragmatika tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi, ya’ni muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi sub’yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘idir.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi sub’yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o‘zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi. Masalan, nutq sub’yekti bilan bog‘liq holda quyidagi masalalar o‘rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat va b.); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so‘zlashish qoidalari; so‘zlovchining maqsadi; so‘zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatikada nutq adresati, o‘zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog‘liq holda ham ko‘plab masalalar o‘rganiladi. Tilshunos Sh.Safarovning fikricha, pragmatika amerikalik olim Charlz Pirs tomonidan barcha bilim sohalarini birlashtiruvchi fan sifatida qaralgan semiotika doirasida yuzaga kelgan va rivojlangan1. Pragmatikani semiotikaning alohida sohasi sifatida qarash haqidagi fikrni birinchilardan bo‘lib Ch.Morris ma’lum qilgan. Lisoniy belgilar tasnifini yaratgan bu olim semiotikani uch mustaqil qism, ya’ni lisoniy belgilarning predmetga nisbatan

[1] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 31.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

munosabatini o‘rganadigan semantika, belgilarning bir-biri bilan munosabatini tavsiflovchi sintaktika hamda belgilarning ulardan foydalanuvchi shaxslarga bo‘lgan munosabatini o‘rganuvchi pragmatikaga ajratishni taklif qildi2. Oxirgi yillarda semantika va sintaksis jadal taraqqiy qilgan bo‘lsada, pragmatikaga e’tibor sustroq bo‘lgandi.

Ilk nashrlarda pragmalingvistikaning ob’yektini aniqlashda bir tomonlama yondashuv ustuvor bo‘lib, ularda til birliklarining ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari oldingi o‘rinda turgan edi.

Til birliklari vositasida o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini o‘rgangan olim T.A. Deykning talqinicha, pragmatik nazariyaning asosiy tamoyili so‘zlovchining tinglovchi ruhiy holatiga ta’sir o‘tkazishi bilan bog‘liq. Pragmatika – tilning vaziyatli qo‘llanishi to‘plami, pragmalingvistika – til egasiga nutqiy tuzilmalar qatorini ma’lum kontekst bilan bog‘lash imkonini beradigan qoidalar tizimini qoliplashtirishdir.3 Van Djeyk pragmatikani sosiolingvistika va psixolingvistikadan farqlash lozimligini tushuntirib beradi. Bundan tashqari, tavsifiy pragmatikada tildan foydalanishning amaliy qoidalari shakllantirilsa, nazariy, “mavhum” pragmatikada esa kuzatuvlar asosida umumiy kategoriyalar ajratilib, ularning o‘zaro aloqasi o‘rganiladi.

So‘zning nomlanayotgan narsa-hodisa bilan bog‘liq bo‘lmagan qo‘shimcha ma’nosi pragmatikaga tegishlidir. Nutqiy aktlar masalasida, matn tilshunosligida bo‘lgani kabi, matn mazmuni va berilayotgan axborot mazmunining qaysi qismi doimiyligini yoki muallif maqsadiga bog‘liq holda shakllanganligini ajratish oson emas. Har holda, muallif maqsadining nutqiy tuzilmada voqelanishi semantikaning ishtirokisiz kechmaydi.4.

Tadqiqotchi V.Xolmatovaning pragmatika tushunchasiga doir qarashlari, tahlil va talqinlari e’tiborga loyiq. Darhaqiqat, tilning jamiyatda bajaradigan muhim vazifalaridan biri – muloqot vositasi rolini o‘tashdir. Pragmatik bilim, o‘z navbatida, inson faoliyati davomida to‘plangan tajriba natijasidir, axborot almashinuvi jarayonida ushbu bilim lisoniy voqelanadi va shu yo‘sinda ongda saqlanadi5. Lekin har bir alohida nutqiy muloqot paytida lisoniy belgi yangicha mazmun ifodalay olishi mumkin. Pragmatikaga oid muammolar hozirgi paytda boshqa sohalarga tegishli ishlarda ham muhokama qilinmoqda.

Lingvososiopsixologiya sohasi vakillari pragmatikani ikki yo‘nalishda, ya’ni matn – muallif va matn – adresat munosabatlarida tavsiflashni ma’qul ko‘radilar. Natijada axborotni uzatuvchi hamda axborotni qabul qiluvchi pragmatikalari bir-biridan farqlanadi. Ulardan birinchisi “statik” xarakterga ega, chunki matn faqat birgina talqinga, ya’ni muallif talqiniga ega, adresat talqini esa aksincha, dinamik xarakterdadir. Pragmatikaning uzatilishi va qabul qilinishiga nisbatan taqsimoti turli yo‘nalishdagi tadqiqotlarni umumiy soha atrofida biriktirishga imkon yaratadi.. Matnning pragmatik imkoniyatlarini bilish, o‘z navbatida, boshqa mundarijadagi pragmatikani, ya’ni axborot yoki xabar pragmatikasini yuzaga keltiradi. Mazkur yo‘nalishda, birinchidan, tadqiq ob’yekti matn bo‘lib, til birliklarining matnda qo‘llanishida hosil bo‘ladigan ma’no xususiyatlari tahlil qilinadi. Albatta, bu matn pragmatik xususiyatlari va alohida lug‘aviy birliklar pragmatik imkoniyatlarning bir xil talqin qilinishiga olib kelmasligi kerak. Lekin har ikkala holatda ham tahlil metodlari umumiy bo‘lishi mumkin.

Pragmatikaga oid tadqiqotlarda asosiy tahlil birligi to‘liq shakllangan matn yoki boshqa turdagi nutqiy, diskursiv tuzilmalar bo‘ladi. Zero, lisoniy birliklarning pragmatik imkoniyatlari faqat ularning matn, diskurs sharoitida faollashuvida namoyon bo‘ladi.

---

[2] Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 3-47.

[3] Dijk T.A. Van Discourse and manipulation // Discourse and society. - L., 2006. - Vol. 17, N 2. - P. 359-383.

[4] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 39.

[5] Холматова В. Прагматика тушунчасининг талқини ҳақида // Хорижий филология. – Самарқанд, 2019. – Б. 45-49.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Pragmatika tushunchasi, odatda, ta'sir ko'rsatish imkoniyati bilan bog'liq holda qaralib, muloqot sharoitida yuzaga keladigan mazmun orqali anglashiladi. Shunga binoan, pragmatikaning til va uning alohida birliklarining, nutqiy tuzilmalarning adresatga ta'sir o'tkazish xususiyati sifatini talqin qilish maqsadga muvofiq.

Yozuvchi Sharof Boshbekov dramalari matnini sosiopragmatik tahlil qilish orqali muallifning o'quvchiga ta'sir kuchini aniqlab olish imkoni paydo bo'ladi. Asardagi nutqiy aktlar tahlili qahramonlarning so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan xususiyatlarini, uning insonga ko'z ilg'amas darajadagi ta'sirini namoyon qiladi. Mazkur zamonaviy tahlil yo'li orqali asarlarning badiiy qimmatini, lisoniy vositalarning keng imkoniyatlarini ham teranroq anglash imkoniyati paydo bo'ladi.

Muallifning "Temir xotin" asari kinoasar bo'lgani bois undagi nutqiy aktlar, matnlar shunga ixtisoslashgan. Masalan, mazkur kinoqissaning boshlanishini kuzatamiz: // *Qishloq. Oddiy, kamtarona hovli. To'g'rida bir necha ustunli peshayvon, o'ngda pastakkina ko'cha eshigi, oldinroqda yog'och karavot. Sahnadagi har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo'yalgan, yarmining rangi o'chib ketgan;yog'och karavotning bitta oyog'i yo'q, o'rniga g'isht terib qo'yilgan; ko'rpa- yostiqqa yamoq tushgan; piyolalarning labi uchgan yoki* ***chegalangan,*** *choynakiing jo'mragiga tunuka kiygazilgan va hokazo.*

Peshayvon ustuniga Qo'chqor arqon bilan ***chandib tashlangan****, ust-boshi, aft-angoriga qarab bo'lmaydi. Shu ko'yi uxlab qolgan bo'lsakerak, avval sekin qimirlab qo'yadi, so'ng ko'zini ochmay esnaydi. Oyoq- qo'linnng o'ziga bo'ysunmayotganiga hayron bo'lib, bir-ikki chiranib ko'radi.*

(*Sh.Boshbekov"Temir xotin"* Muallif matn kinoqissa janriga mansubligidan kelib chiqib o'quvchidan tashqari, tomoshabin kuzatuvchini ham, kinorejissyorni ham esdan chiqarmaydi, o'quvchi o'qib, o'ziga kerakli taassurotni olaveradi, tomoshabinni ishontirish uchun kinorejissyor va uni ijro etuvchilar ham teran, aniq va tiniq anglashlariga imkon beradigan ifoda zarurligini muallif diqqat markazida ushlab turadi. Asar qahramonini nafaqat tashqi ko'rinishi, balki bor ichki olami bilan ko'z oldingizda yorqin Shyugavdalantira oladi. Bu holatning roman yoki oddiy qissadagi matndan ancha farq qilishi aniq.

Muallif matn orqali adresatga qahramonga qo'shib uning atrofidagi olamni ham tilning ifoda imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib yorqin tasvirlab beradi. Ayrim nasriy matnlarda ma'lumot – axborot, voqelik muhim hisoblanadi. Muallif maqsadi, uning o'quvchiga ta'sir kuchi ma'lum muddatdan so'ng, ba'zan asar so'ngida oydinlashadi. Kinoqissada esa barchasi parallel olib borilishi kerak Mana bu tasvir ham o'quvchiga ko'rinib turgan voqelikni, eng muhimi, bosh qahramonning insoniylik qiyofalarini namoyon qiladi. Muallif adresatga o'zbek bo'lmagan kishilar anglay olmaydigan, o'zbekona mentalitetni namoyon etuvchi sahna tasvirini til birliklari orqali chizib beradi:" *QO'CHQOR (uy tomonga). Ho', tirikmisan?.. (Tipirchilaydi.) Yechib qo'y darrov, ho'-o'!.. Qumri, deyapman, jahlim chiqsa nima bo'lishini bilasan-a? Yaxshilikcha bo'shat! (Bir oz kutib.) Iye, bir balo bo'lganmi bunga?.. Oxirgi marta aytyapman, agar hozir yugurib kelib, qo'li bo'shatmasang...*

Ichkaridan Qumri chiqadi. U o'ttiz-o'ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta ko'rinadi."(Sh.Boshbekov"Temir xotin")

Yozuvchi Qo'chqorni sodda, beg'ubor, samimiy, oqko'ngil, dallig'uli yigit edi, deb ta'riflab qo'ysa ham bo'lardi. Bu o'quvchiga ma'lumot sifatida yetarli bo'lar edi. Biroq muallif adresatga quruq xabarni emas, oddiy odatiy suhbatni o'z o'rnida maqsadli qilib ustalik bilan keltirmoqdaki, o'quvchi matnda yozilmagan ma'lumot va hissiyotlarni darhol anglaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharof Boshbekov. "Temir xotin" asari.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

2. M.Xolmurodova. Erkin A’zam kinoqissalari tilining sosiopragmatik aspekti. Toshkent 2021
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
4. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 1996.

5. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir Xalq so‘zi, 2017
6. Aliqulov. T.O‘zbek tilida polisemantik otlar: Filol.fan.nomz.diss.-1963. 7. Xudoyberganova D.S.O‘zbek tilida badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol.fan.dokt…diss.-Toshkent, 2015